

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

Toshqo'ziyeva Nigora
*NamDU matematika fakulteti,
matematika yo'nalishi, 2- bosqich
MAT-AU21guruh talabasi*

Annostatsiya: *Ushbu maqola, ayni vaqtarda insonlarning har qanday ishini "silliq" bajarishiga "ko'maklashayotgan" korrupsiya haqidagi fikr va mulohazalardan iborat.*

Atamalar: "sudxo'rlik" , "pora" , "tolibi ilm" , "korrupsiya" .

Ilm-insonning insonligini ko'rsatuvchi, uni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi "tilsim". Uning kuch-qudratini tasavvur eta olmaymiz. Lekin insonga Alloh tarafidan in'om etilgan bu ne'matni asramoq, qadrlamoq, uni hurmat qilmoq har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

Avvalo, ilm o'rganish, uni boshqalarga ham o'rgatish har birimiz uchun farz etib berilgan amallardandir. Ming afsuslar bo'lsinki, ayni mana shunday ilmli insonlar ayni vaqtarda bila turib insonlarga, jamiyatga ziyon yetkazadigan ishlarni qilib qo'yemoqda. Axir ilmli inson bu ilmini boshqalarga o'rgatar ekan, uning amalini o'zi qilmasa, bu ilmdan kimga foyda?! Faqatgina ohiratda mo'min-musulmonlar "makoni"dan o'z-o'zini yiroqlatishga "hujjat" bo'lib xizmat qiladi holos. Dinimizda ilmlilar haqda shunday so'z ketgan: Ilmli insonning ilmi uning o'ziniki emas, atrofidagi jamiyatnikidur. Hattoki ilmli, olim insonlarning ibodati ham oddiy insonninkidan yuqoriq qo'yilgan.

Endi qarangda... Alloh insonni shunday ulug', ziyoli bo'lishiga yo'l bersayu, bunga qanoat qilmasa bandasi. Buni nima deb atashl mumkin?!

Biz musulmon xalqlar uchun halol, man etilgan ne'matlar bilan bir qatorda, huddi shunday amallar ham bor. Ana o'sha, iymonli inson uchun hos bo'limgan amallardan biri sudxo'rlikdir[1]. Ayni vaqtida bu amalni, insoniyatning eng ziyoli "qatlamlari" da uchrashi juda ham achinarlidir. Lekin, bu ish bo'lmoqda.

Birgina misol, oliy talim dargohlarida "pora"[2] evaziga o'qishga kiritish, go'yoki "tolibi ilm" bo'lish istagidagilar topiladi. Endi yuqoridagi jumлага e'tibor bering..! "Tolibi ilm"[3] axir bu degani ilm izlovchi, o'z ustida ishlovchi, ziyo taratuvchi degani emasmidi?! Axir jamiiyki insoniyatga xizmat qiluvchi kasb egalari mana shu qadamni bosib o'tmaydilarmi?! Faraz qiling, tolibi ilm bo'lish uchun "pora" bersa, ertaga u inson o'z kasbidan qay maqsad ko'zlaydi, qanday xizmat qiladi. Agarda o'sha kasbni egallay olsa, albattra. Ikkinci tomonidan qarasak... Kelajak avlodga, kelajak egalariga ta'lim berayotgan "ustoz" deb atalmish ulug' zot, o'zi shunday nomaqbul ishga qo'l urib tursa... nima deya olasiz?! Axir ularku shogirdlarni to'g'ri yo'lga boshlaydigan, axir ularning izidan yurishi kerak emasmidi shogirtlar?! Balki ularning bu ishlarini hech kim bilmas, ammo yaratgandan yashira olmaydilar. Bunday ish, shu ishni qilgan odamgagina ziyon yetkazib qolmaydi

afsuski. Farzandiga, oilasiga ushbu yo'l bilan topgan "rizq" halol deb kim isbotlab bera oladi? Hattoki, farzandning halqumi "toza" bo'lishi uchun ona taxoratsiz ko'krak tutmasligi kerak emasmidi?

Sudxo'rlikning dinda ham, qonunda ham jazosi tayin. Balki bu ishi uchun :"to'rt devor orasida bir necha yil yashab chiqib, yana avvalgi hayotimni davom ettiraveraman"- deb o'ylaydiganlar ham bordir. Balki mana shu to'rt devor uning qo'llarini "kalta" qilib qo'yar ham. Lekin bular bari, bu foni dunyoning vaqtinchalik jazolaridir.

Albatta, jamiyatda bo'layotgan ishlar, bu jamiyatning qay holatda shakllanishi birgina insonga bog'liq bo'lib qolgan emas. Barcha birday harakat qilibgina jamiyatni shakllantirishi mumkin. Ta'lim dargohlari ana shunday jamiyatning asosini, tayanchini tarbiyalaydi. Agar o'sha joyda oqillik, poklik bo'lmas ekan, jamiyatdan buni kutish xatodir. Asosiy e'tiborni ziyo maskanlariga qaratmoqlik kerak. U yerda faqat va faqat munosiblarga tahsil olishli va ta'lim berishi kerak. O'zingiz o'ylang ... qalbida ilmga bo'lgan ishtyoqi jo'shib turgan, kechani kecha, kunduzni kunduz demay izlangan, o'qigan bir yoshgina qalb, ne-ne umidlar bilan, tolibi ilmlar safidan joy olish maqsadida o'sha dargohga qadam qo'ysayu, qandaydur hoy-u havas iljinidagi kimsalar uning niyatlarini havogasovursa. Bu, jamiyatda yana bir ishtyoq so'ndi degani emasmi?! Huddi mana shunday holatlar birgina emas, bir qancha uchraydi har yili. Agar vaziyat shu tariqa ketaversa: "Ha, oliy ta'limga kirish uchun o'qimay qo'yaver, puling bo'lsa bo'ldi, marra seniki" degan jumlalar oddiy holga aylanib qoladigan vaqtлага yetib kelib qolmaymizmikin?!

Biz ham ayni damda kimlarningdur orzusida, duolarida bo'lgan OLIY TA'LIM dargohida tahsil olmoqdamiz. Bu yerkarta yetguncha, yetarlicha zahmat chekkanmiz har birimiz. Endi bundan buyog'iga ham huddi shunday davom etmog'imiz darkor. Atrofga nazar tashlaylik, bizning hozirgi jamiyatimiz, eng ilmlilar jamiyatidir. Shu jamiyatni "ideal" darajaga olib chiqishga intilishimiz kerak. Agar egallagan bilmlarimizni targ'ib qilmasak, bu jamiyat yana o'sha-o'sha oqsab qolgan holatda davom etaveradi, biz esa jimgina qarab turaveramiz. Vaholangki bu oqsoqlik bizni ham o'z domiga tortadi. Keyin nima bo'ladi?! Shunday ekan hech bir ishga "menga nima" degan zayilda qaramasligimiz kerak. Chunki, barcha qoloqlik, nochorlik o'sha so'zdan boshlanadi.

Yuqoridagi , insonlarning hamyonini "harom" bilan to'ldirayotgan, ko'zini moy bilan "qoplayotgan" sudxo'rlikni qachon unutamiz? Hech kim tasavvur etolmaydi unday hayotni. Lekin, vaqt kelib inson oyga qadam qo'yishini ham hech kim o'yamas edi, tasavvuriga sig'dirolmas edi, vaholangki u ish bo'ldi. Insonning bu qarashi o'zgardi. Demak, korrupsiyasiz hayot ham bor, u bizni yaqin yaqinda kutib turibdi. Faqatgina biz o'sha kunga ishonib harakat qilishimiz kerak. Farzandlarimiz bilmasdan kichik "korrupsiya" ga qo'l ursa, masalan nimadurning evaziga aka-uka, opa-singlining buyurgan ishini qilayotgan bo'lsa, unga uqtiraylik bunday qilmasligini. Bu balki kelajagi uchun ahamiyatlidir. Axir, zarracha cho'g' ham alangaga sabab bo'la olishini yaxshi bilamiz-ku. Biz tolibi ilmlar, va'da beramiz :"korrupsiya[4] degan so'z bizning xalqimizga yod so'zga aylanadi, uni yurimizning hech bir manzilida uchratmaydigan kunlar keladi va bunga harakatni hozirdan boshlaymiz,

o'zimizning jamiyatdan boshlaymiz". Ayni vaqt baralla ayta olamiz "BIZNING DARGOHIMIZDA KOR-RUPSIYAGA O'RIN YO'Q".

"Qayerdadur iymoni but insonga hos bo'l imagan amalni qilayotgan kimsaga ko'zimiz tushadigan bo'lsa, unga bu ishlari oshiratda jahannam olovini purkashi mumkinligini yodiga solib qo'yaylik va o'zimiz ham nomaqbul ishlardan tiyilaylik".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Анвар Ахмад , Ш. Ахмаров "101 Хадис". Тошкент 2018.
2. Мухаммад Амин Мухаммад Юсуф "Исломга баг'ишланган умр". Тошкент 2020.
- 3.Turli OAV larning nashrlari.